



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZELOGIYASIDA "SEVGI"
KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI**

Shoxsanam To'xtasinova Abdujalil qizi

Andijon Davlat Chet tillari Instituti Ingliz tili amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida "Sevgi" konseptining frazeologik birliklarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillar o'rtasida "Sevgi" komponenti bilan o'xshash va farqli tomonlari misollar kesimida bayon etilgan, izohlangan, xulosa qismida puxta takliflar berilgan. Mavzuning mohiyatini yanada chuqur o'rganish, uning ustida keng masshtabda izlanish olib borilishi kerakligiga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar

konsept, frazeologiya, komponent, antropotsentrik, leksema, sevgi, semantik, nominatsiya, psixosomatik, his-tuyg'u.

ABSTRACT

This study is devoted to the comparative analysis of the phraseological units of the concept of "Love" in English and Uzbek languages. Also, the similarities and differences between the compared languages with the "Love" component are described and explained in the examples section, and detailed suggestions are given in the conclusion section. It was felt that a deeper study of the essence of the topic should be carried out on a large scale.

Keywords

concept, phraseological, component, anthropocentric, lexeme, love, semantic, nomination, psychosomatic, emotion.

Zamonaviy tilshunoslikda ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasini qiyosiy o'rganish ushbu tillar frazeologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish, tillararo frazeologik birliklarning mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Frazeologiya tilshunoslikning keyingi rivojlanishida jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. Keyingi yillarda ikki til yoki tillar guruhini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab monografiyalar yaratildi. Ular frazeologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga, turli tizimlardagi tillarning frazeologiyasini tahlil qilishga, tuzilishi va vazifasi bir xil bo'lgan frazeologik birliklar, turg'un tuzilishga ega frazeologik birliklar va turli modeldagi frazeologik birliklarga bag'ishlangan.

Tadqiqotimiz dunyoning ingliz va o'zbek tillaridagi "Sevgi" konseptining frazeologik birliklarini taqqoslashga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kognitiv tilshunoslikning zamonaviy bosqichi insonning ichki dunyosiga e'tibor



qaratadigan antropotsentriklik bilan ajralib turadi. Binobarin, muhabbat tuyg'usi inson ichki dunyosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tilshunoslarni, shubhasiz, qiziqtiradi.

“Konsept” termini birinchi marta rus lingvistikasida 1928 yilda S.N.Askol'dovning “Konsept i slovo” maqolasida qayd etiladi. Tadiqotchining fikricha “tafakkur jarayonida bir xil turdagi ob'ektlar, harakatlar, aqliy funksiyalarning noaniq to'plamini almashtiradigan ruhiy shakllanish” konseptni ifodalaydi [2, 268]. Ushbu ta'bir konseptga yangi yondashuvlar paydo bo'lguniga qadar tilshunoslikda birmuncha uzoq surgan g'oyalardan bo'ldi. Shundang so'ng rus izlanuvchilari tomonidan “konsept” ga turli xil qarashlar hukm sura boshladi. Bu taxmiman XX asr oxiriga to'g'ri keladi. “Konsept” so'zining o'zi tilshunoslikda olimlarning unga lingvokulturologik yoki kognitiv yondashuvlari paydo bo'lishidan oldin mavjud bo'lib, bu so'z o'zbek, rus yoki boshqa tillarga Yevropa tillaridan, jumladan nemis tilida “konzept”, ingliz va fransuz tillaridan “concept”, hamda lotin tilidagi “conceptus”-“tushuncha” ma'nosi ostida o'zlashtirilgan. Agar ushbu so'zning ma'nolarini turli xil lug'atlarda ifodalangan mazmuniga e'tiborimizni qaratsak, tilning leksik tizimida uni qo'llab quvvatlovchi bir qator hosilalarini ham ko'rishimiz mumkin: ingliz tilida-concept, conceptual, conceptualise, conception va h.z.; rus tilida-konsepsiya, konseptualizasiya, konseptologizasiya, konseptualizm, konseptualist [3,16] va h.z; o'zbek tilida-konsept, konsepsiya, konseptual va h.z.

“Konsept” atamasi tilshunoslikda eski va shu bilan birga yangi tushuncha bo'lib, u S.A.Askoldovning 1928 yilda yozilgan “konsept i slovo” nomli maqolasida ko'proq so'zga bog'langan [2,269]. XX asrning o'rtalariga kelib esa “konsept” tilshunoslikda atama sifatida qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda tilshunoslikda “konsept” atamasiga ikki yo'nalish: - kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatdan yondashiladi.

Jumladan, A.P. Babushkin, N.N. Boldiryov, E.S. Kubryakova, I.A. Sternin va boshqalar kognitiv tilshunoslik bo'yicha olib borgan tadqiqotlarda “konsept” - bu ong birligi bo'lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba, inson xayoti faoliyatidagi natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasi sifatida qaraladi. O.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, B.R.Mengliev, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova kabi ko'plab o'zbek tilshunoslari tushunchaga ta'rif berganlar [10, 245]. Sh. Safarov kontseptsiyani «hozirda moddiy olamni idrok etish orqali idrok etilayotgan obyekt-hodisalar tushunchasining tug'ilishi, so'ngra bu tushuncha aqliy model - tushuncha sifatida shakllanadi va moddiy nom oladi» [9, 91]. D.U.Ashurovaning fikricha, kontsepsiya butun til madaniyati hamjamiyati yoki alohida til shaxsi uchun kontseptual ahamiyatga ega bo'lgan murakkab psixik birlik, dunyo kontseptual



manzarasining tarkibiy qismidir [1, 55]. Lingvomadaniy tahlil "Sevgi" tushunchasining etnik xususiyatlariga qiziqishni belgilaydi. "Har bir etnik guruh dunyoni o'ziga xos tarzda, o'z madaniyati, dunyoni idrok etish prizmasi orqali ko'radi, shuning uchun har bir etnik guruhning dunyosi tasviri uning o'ziga xos dunyoqarash qarashlari, dunyoning yaxlit modelidir" [1, 56].

Ko'rinadiki, hozirgi vaqtda "konsept" atamasini ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan har xil izohlaganligi kuzatiladi. Biz mazkur ishimizda ularning aytgan fikrlarini birma-bir talqin etganda bu fikrimiz to'liq tasdiqlandi. Ulardan ba'zilarida konseptni " mantiqiy kategoriya" sifatida ta'riflansa [5,76], ayrimlarida esa "amaliy falsafa tushunchasi" tarzida qaraladi [5,87]. Yana boshqa birida "mental leksikonning birligi" shaklida talqin etiladi. Xususan, taniqli olim Y.S. Kubryakovaning "Kratkiy slovar' kognitivnix terminov" nomli lug'atida konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Konsept insonning bilim tajribasi, xotiraning amaliy mazmunli birligi, mental leksikon, konseptual tizim va til, inson psixikasi (ruhiyati)da aks etgan olamning barcha tasvirini bizning ongimizga singgan va informasion tuzilishlardagi mental birliklar yoki psixik resurslarni tushuntirish uchun xizmat qiladi" [4,8]. Ye.S. Kubryakovaning boshqa bir maqolasida esa, "Konsept - mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir", deb ta'riflanadi [4,9].

V.A.Lukinning ta'rifi bo'yicha konsept lotincha "conceptus"ning mazmuni yig'ib oluvchi yoki o'ziga ko'plab shakllarni qamrab oluvchi va ularning boshlanishini "kurtak" deb talqin etilgan. "Urug'doshlik" (negiz) etimologik paradigmasi konseptning ana shu belgisini yaxshiroq namoyon qiladi, agar biz uning lotincha antonimi bilan o'zaro munosabatini aniqlasak, quyidagicha: konseptiv (kurtak yoki negiz hosil bo'lishiga olib keluvchi) - kontraseptiv (kurtak hosil bo'lishidan saqlovchi) kabi shakl yuzaga keladi [5, 10].

S.Neretinaning yozishicha, konseptda ajralib chiqadigan kurtak belgisi P.Abelyar dialektikasida XI asrdayoq shakllangan edi [7, 247]. P.Abelyarning fikricha, konsept-bu fikrni anglab olish conceptio formasidir, u tushunchani anglab olishdan ustunlik qiladi. Unda tushuncha (intellectus) idrok formalari bilan uzviy bog'langan. Konsept oliy ruhning hosilasidir (tinglovchining ko'ngli ko'tarilgan yoki ruhi baland kabi), aqlning idroki yoki fikr-mulohazalarning bir qismidir, u fikr- mulohazalarni ijodiy aks ettirishga qodir. Bu termin(atama)ni u tinglovchi ko'ngli yoki tinglovchi ruhi bilan juftlikda qo'llaydi, bunda fikrning to'liqligi unga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, P.Abelyar quyidagi ta'rifni beradi: konsept bu - tushunchalar yig'indisidir, ular nutqda o'zlashtiriladi, bu aqlning hal qiluvchi bosqichida u yoki bu predmetning uni anglatadigan fikr-mulohazalar bilan bog'liqligidir.



Masalan, Vorkachev S.G.ning fikriga ko'ra, kontsept "lingvistik ifodaga ega bo'lgan va etnik-madaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoaviy bilim / ong birligi (yuqori ma'naviy qadriyatlariga)" [3, 51]. Kontseptlarning mohiyati ularni "milliy mentalitet tashuvchisi bo'lgan lingvistik shaxs bilan o'zaro bog'lashda" dir. Ya'ni, "kontsept" nafaqat til bilan, balki u paydo bo'lgan xalqning madaniyati bilan ham chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganidek, "kontsept" yagona, umumiy qabul qilingan talqinga ega emas, har bir tadqiqotchi ushbu hodisaning yangi qirralarini kashf etadi.

"Sevgi" kontsepti insonning asosiy hissiy tizimidan biridir. Hissiy sistema insonning eng murakkab nuqtalaridan biridir, chunki hissiyotlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va namoyon bo'lishida deyarli barcha inson tizimlari - idrok, fiziologik reaksiyalar, intellekt, hissiyotlar va boshqalar ishtirok etadi. Shunday qilib, sevgi eng kuchli va murakkab tuyg'ulardan biri deb aytishimiz mumkin. Olimlar ishq-muhabbat tushunchasiga turlicha talqin berishadi, biroq izohli lug'atlarda "Love" va "Muhabbat" leksemalarining leksikografik talqini qiyosiy jihatdan bu tushuncha talqinining o'ziga xos va umuminsoniy milliy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Lug'at ta'riflariga ko'ra (Oxford, Webster, Macmillan tomonidan berilgan) Sevgi kontsepti quyidagi xususiyatlarga ega:

LOVE, [/lav/] – 1) deep affection or fondness; 2) sexual passion or sexual relations; 3) a beloved one; sweetheart (often as a form of address), b colloq. form of address regardless of affection [5, 541.]; 4) affectionate greetings (give him my love); 5) (often Love) a representation of Cupid. 6) (in some games) no score; nil [5, 470.]. The OED tried to draw a distinction, listing without stigma the sense "to have a strong liking for; to be fond of; to be devoted or addicted to" but stigmatizing the use that is simply synonymous with like as a frequent vulgarism in the U.S. [10, 613].

MUHABBAT, [arabcha] sevgi – 1) biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g'oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan intim va kuchli tuyg'u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi; Kimsaning kimsaga qalbdan berilish hissi; sevgi, ishq [6, 66]. 2) Tasavvufda Allohga yetishish («haqiqatga erishish»)ning asosiy vositasi [6, 907]; 3) Birovga, biron narsa yoki ishga berilish, moyillik tuyg'usi, mehr [8, 66].

Anglashiladiki, "Love"ning lug'at ma'nolariga ko'ra, sevgi eng kuchli va qiyin tuyg'ulardan biri deyishimiz mumkin. "Sevgi" kontsepti sifatida turli lingvistik vositalar yordamida o'rganish mumkin. Sevgi - bu qarama-qarshi tuyg'u va bu ikki qarama-qarshi his-tuyg'u mavjudligida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarida "sevgi" baxt bilan bog'liq, uning farqlari faqat grammatik tuzilishda bo'lishi



mumkin. Ingliz tilida baxtli «happy», hayot «life», millat «nation» va filmning oxiri «end» bo'lishi mumkin, lekin sevgi leksemasi unday bo'lmaydi. Shunga o'xshash ma'noni etkazish uchun ingliz tilida so'zlashuvchilar «happy in love» (sevgida baxtli) yoki «feel love and happiness» (sevgi va baxtni his qilish) iboralarini afzal ko'radilar. Sevgi ishqibozlikdan tug'iladi. Ushbu bosqichning muhim qismi uchrashuvdir hamda uning eng yuqori nuqtasi sevgi munosabatlaridir.

Fate had driven him seventeen years ago to set his heart upon this woman so utterly, that even now he had no heart to set on any other. (J.Galsworthy, In Chancery, part III, Ch I) – Taqdir uni o'n yetti yil oldin bu ayolga shunchalik ko'nglini qo'yishga majburlagan ediki, hozir ham boshqasiga yuragi yo'q edi.

Ehtiros asta-sekin sevish tuyg'usiga, keyin esa muhabbatga aylanadi.

She fell in love with that new neighbor of theirs and she decided to break off the engagement with John. – U o'sha yangi qo'shnisini sevib qoldi va Jon bilan munosabatlarni to'xtatishga qaror qildi.

Vaqt o'tishi bilan tuyg'u asta-sekin zaiflashadi va sevgi mehr bilan almashtiriladi. Bu ro'yxatga ehtiros tuyg'usini kiritmaslik mumkin emas. Ehtiros - bu odamning barcha his-tuyg'ulari, fikrlari va intilishlarini bo'ysundiradigan kuchli va doimiy ishtiyoq.

But the love that had taken such despotic possession of Bertha's heart could not be overthrown by any sudden means. (W. S. Maugham, Mrs. Craddock, ch. XX). – Ammo Bertaning yuragini shunday zolimona egallab olgan sevgini hech qanday to'satdan yo'q qilib bo'lmaydi.

"Sevgi" ma'nosiga ega frazeologik birliklarni ko'rib chiqishda bevosita va bilvosita nominatsiyalarni ajratib ko'rsatish zarur. "Sevgi" tushunchasining to'g'ridan-to'g'ri nominatsiyalari nominal, og'zaki birliklar bo'lib, ularning semantikasi quyidagi xususiyatlardan birini o'z ichiga oladi: "sevgi yo'naltirilgan nutq harakati, tuyg'u sifatida", "sevimli" va "sevish". Kontseptning bilvosita nominatsiyalari frazeologik birliklarda psixosomatik holatlar va sevgi tuyg'ularini boshdan kechirish bilan birga keladigan xatti-harakatlarning tasvirlarida taqdim etiladi. Masalan: "everlasting love" (abadiy sevgi) to'g'ridan-to'g'ri nominatsiya, "sheep's eyes" (qo'yning ko'zlari) bilvosita nominatsiya.

' I don't mind your knowing' he said. I'm fathoms deep in love with Kler'. – "Boxabar bo'lishingizga qarshi emasman", dedi u. "Men Klerni juda yaxshi ko'raman".

Lingvistik material tahlili sevgi modeli ona tilida so'zlashuvchilar ongida madaniy o'ziga xosliklardan kelib chiqib qurilganligini tasdiqlaydi. "She was filled with love" (u sevgiga to'la edi), "her feelings overflowed" (uni his-tuyg'ulari to'lib-toshgan) frazemalari "sevgi ozuqadir", "sevgi - oziq-ovqat", "u muhabbatga



intiladi" yoki "u muhabbatga chanqoq" kabi boshqa madaniy o'ziga xos narsalar bilan bog'lanadi.

Taqqoslanayotgan tillarda sevgi olov tasviri, his-tuyg'ularning o'zgaruvchanligi bilan taqqoslanadi: to flare up with passion - (English) "to be on fire, catch the fire, take the fire"; (Uzbek) sevgi o'ti, muhabbat uchquni, sevgi alangasi. O'zbek xalqining o'ziga xosligi shundaki, ishqning namoyon bo'lishi yoki ko'rinishi inson qalbida, ichki kechinmalarida o'z aksini topib, o'ziga xos ruhiy holat - "ko'ngil" (soul) orqali uzatiladi: ko'ngli bor, ko'ngil bermoq, ko'ngil bog'lamoq, muhabbat qo'ymoq, ko'ngil qo'ymoq, ko'ngli tortmoq, ko'ngliga qo'l solmoq, yuragiga qo'l solmoq, qo'yniga qo'l solmoq, ko'nglini ovlamoq, ko'nglini topmoq, ammo ingliz tilida qalb va muhabbat tuyg'usini bog'laydigan barqaror ifodani topish amri mahol [10, 245].

"Sevgi" konseptining ingliz va o'zbekcha talqini uchun umumiy bo'lgan narsa bu tushunchani sinonimlar orqali semantik ifodalash tendentsiyasidir. O'zbek tilidagi "sevgi" tushunchasini izohlashda qo'llaniladigan sinonimik qator "muhabbat, mehr, hissiyot, ishq, ehtiros, mayl" leksemalari bilan, ingliz tilida esa "love" affection, adoration, fondness, devotion, passion, like kabi leksemalari bilan ifodalanadi. Har ikki tilda ham "love-sevgi" tushunchasini izohlashda eng keng tarqalgan birlik "his", "mehr-muhabbat" - "affection" leksemasi hisoblanadi.

Shunday qilib, tadqiqotning ushbu yo'nalishlarining umumiy g'oyasi shundan iboratki, sevgi tafakkur va madaniyatning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Sevgi tushunchasi "madaniyat asosini" o'rnatadigan dunyoqarashning umuminsoniy hamda hayot mazmuni bilan bog'liq asosiy ma'naviy qadriyatidir. Xulosa qilinganda, "sevgi" tushunchasining ingliz va o'zbek frazeologik birliklari ushbu tillarda so'zlashuvchilarning madaniy xususiyatlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarning katta guruhini ifodalaydi.

Ingliz tilida so'zlashuvchilar oshiq insonning xatti-harakatini mast, ruhiy kasal odam bilan solishtirish mumkin, deb hisoblashadi. Sevgi - bu manfaatsiz va beg'araz tuyg'u, ya'ni azob-uqubat yoki og'riqli holatga qaramay, g'amxo'rlik, e'tibor, sevgi ob'ektini qadrlash va hurmat qilishdan iborat. Ingliz tilidagi "Sevgi" leksemasi ma'nosi bilan solishtirganda " o'zbek tilidagi sevgi" hisob-kitob ulushiga ega bo'lgan tuyg'udir, lekin u xudbinlik motivlarini o'z ichiga olmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Muhiddinova Sabohat Akhmadjanovna 2021. Etymology of phraseological units in English and Uzbek languages. European Scholar Journal. 2, 3 (Mar. 2021), - P. 51- 53.



2. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). - Toshkent: Universitet, 2000. - 600 b.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. - 91 b.
4. Satimova D., To'xtasinova Sh. (2023). COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE SOMATIC COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK (IN THE EXAMPLE OF THE CONCEPT OF LOVE). International Standard Serial Number International Centre. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7735346>
5. Tadjieva M.F. Comparative analysis of phraseological units of the concept "love" in the English and Uzbek languages // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.6 Philological sciences. - P. 244-249. <http://berlinstudies.de/>
6. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. - М.: Academia, 1997. -267-280 с.
7. Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане//Хорижий филология: Тил, таълим, адабиёт.-№3, 2016. 54-60 с.
8. Воркачев С.Г. Лингвокультурная концептология и её терминосистема. // Дискуссии. Политическая лингвистика - Краснодар. - Россия. №3. (49), 2014. - 16 с.
9. Кубрякова Е.С. Языковое сознание и языковая картина мира // филология и культура. Материалы 2-й междунар. конф. Ч.3. - Тамбов: Изд-во. Тамб. ун-та, 1999. - С. 6-13.
10. Люкин В.А. Концепт истины и слова истина в русском языке. // В. Я. 1993. № 4. - 63-85 с.
11. Неретина С.С. Слово и текст в средневековой культуре. Концептуализм Абеяра: - М.: 1995. - 328 с.